

**SHARQ PEDAGOGIKASI TARIXINING BUYUK MUTAFAKKIRLARI**

*Foziljonova Mahliyo Xayrullayevna  
Omonova Sarvinoz Alijon qizi  
Ergashboyeva Shaxzodaxon Baxtiyor qizi  
Andijon davlat chet tillari instituti talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta'lim-tarbiyaning roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. O'qituvchi faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy sifatleri e'tirof etilgan bo'lib, bunda asosiy o'rganish obyekti sifatida "Mahbub ul-qulub" asari olingan. Shuningdek, ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariy hayoti va ijodi hamda uning pedagogik qarashlari haqida qisqacha ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ustoz-murabbiy, komillik, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, barkamol inson, shaxs kamoloti, maktab, ma'naviy meros, Qoshg'ariy, ta'lim-tarbiya va uning vazifalari, "Odob as-Solihin" asari, ma'rifat, dunyoqarash.

O'tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o'g'itlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o'rganish xalqimizning ma'naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq mutafakkirlaridan biri, o'zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o'rganish, undan Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: "Loaqal bir harf o'rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo'lmaydi". Biz ulardan umrbod qarz dormiz.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutassib, johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur, deydi. Darhaqiqat, johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga jafu qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga, kaltaklashga o'rgangan, gazabli, qoshi chimirilgan, gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiqligi va ta'b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham giriftor. Ular qiynash yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do'q-po'pisa bilan tartibga solmoqchi bo'ladilar. Ulardagi ko'rinib turgan qo'pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishini odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas.

Ustoz bolaga ilm va odob o'rgatadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulg'aygach podshohlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulluq qilsa arziydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bola tarbiyasi har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, men bu maqolani yozishda yana bir bor Alisher Navoyning nafaqat adabiyotga balki, yoshlar tarbiyasiga ham o'z kitoblari bilan hissa qo'shganini bildim. Allomaning pedagogik qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

Mutafakkir olimlarimizdan Mahmud Qoshg'ariy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatini targ'ib qilgan. Mahmud kelib chiqishi va tiliga ko'ra Qoshg'ariy nisbatini olgan. U yashab ijod etgan davrda Movarounnahrda Somoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi.

Mahmud Qoshg'ariy – XI asrning o'rta osiyolik filolog-olimi. 1072-1074 yillar arab tilida “Turk tili lahjalari”ni tuzgan. Bu – erta davr turk shevashunosligining yagona yodgorligidir.

Uning otasi Bolasog'un shahrini boshqargan. Oliy tabaqadan kelib chiqishi olimga o'z davrining yirik siyosiy va madaniy markazi bo'lmish Qashqarda ajoyib ta'lim olish imkonini berdi.

Bir qator turkiy tillar bilan birga, Mahmud Qoshg'ariy arab va fors tillarini ham bilgan. Ehtimol, ta'limni Buxoro, Nishopur, Samarqand, Marv, Bog'dodda davom ettirgan, u yerlarda olim uzoq vaqt yashagan, kitobi uchun zaruriy ma'lumotlar to'plagan. U vaqtlar saljuqlarga tegishli Bog'dodda bo'lgan vaqti Qoshg'ariyda kitobning g'oyasi paydo bo'ladi, unga ko'ra, turkiy xalqlar hayotining ko'p qirralari, fikrlashi, odatlari, jo'g'rofiy joylanishi va eng avvalo, tili ta'riflanishi joiz bo'lgan.

Mahmud Qoshg'ariyning arab filologiyasining ilmiy uslublaridan foydalangan holda yozilgan mehnati bugun ham tilshunoslar, folklorchilar va adabiyotshunoslar orasida, shubhasiz, qadr-qimmatga egadir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan “ Odob as solihin “ asari jamiyat a'zolari, shu jumladan, yoshlarning ma'naviy axloqiy jihatdan barkamol bo'lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar har bir inson tomonidan o'rganilishi va kundalik turmushda qat'iy amal qilinishi zarur bo'lgan xulq odob qoidalarining majmui sanaladi. Shu bois Sharq pedagogikasi tarixida mazkur asar ham Unsurul-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari kabi o'z o'rnini va mavqeiga ega.

Pedagogik deganda o'z navbatida ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari ham ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ma'rifat –kishilarning ong –bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim –tarbiya, maorif hamdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.Asarlar. On besh jildlik. 13-jild.– T.: “Badiiy Adabiyot” nashriyoti, 1966. – B. 189-190.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toplami.Yigirma jildlik. 16-jild. 2000. B. 26..
3. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES. Retrieved from <http://xn--e1aajfpcds8ay4h.com.ua/menus/view/202/>.
4. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94. Retrieved from <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/5122>.
5. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131. Retrieved from <https://provinciajournal.com/index.php/telematique/article/view/984>.
6. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.
7. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тadbirkorликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251614>.
8. Madaminjonovna M. M. Umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.
9. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тadbirkorликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222. Retrieved from <https://paper.researchbib.com/view/paper/251637>.
- 10.Madaminjonovna M. M. Zamonaviy sharoitlarda umumta'lim fanlarini tadbirkorlikka yo 'naltirib o 'qitish tizimi //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.
- 11.Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.

12. МИРЗАКАРИМОВА М. М. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Novateur Publications. – 2022. – №. 1. – С. 1-128.
13. MADAMINJONOVNA M. M. ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА YO ‘NALTIRIB O‘QITISHNING ДИДАКТИК АСОСЛАРИ //Nova. Pub. – 2022. – С. 1-128.
14. Mirzakarimova M. CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING ТАДБИРКОРЛИК КО‘НИКМАЛАРИНИ RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 6. – С. 410-415.
15. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o‘rganish va bartaraf qilish //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 11. – С. 78-83.
16. Mirzakarimova M. M., Uzoqjonova M. D. Q. Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 12. – С. 321-324.
17. Mirzakarimova M. M. et al. “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 2. – С. 224-228.
18. Mirzakarimova M. M. et al. Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – С. 264-269.